



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 12-iyun

199-10-0-F/25

Toshkent viloyati hokimiligi

“Qaynarsoy qarorgohi” DM hududidagi issiqlik ta’minoti tizimi, sovuq suv ta’minoti va oqova tizimi hamda ko‘chalarni yoritish tizimlari bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 12, 14 va 23-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2025-yil 14-apreldagi 07-724-XDU/2-sonli xati, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 4-iyundagi VII-14-72-10-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq, viloyat hokimi o‘rinbosari Sh.Mahmudovning bildirgisini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan,

1. Viloyat mahalliy byudjetining 2025-yil I-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan “Qaynarsoy qarorgohi” DM hududidagi issiqlik ta’minoti tizimi, sovuq suv ta’minoti va oqova tizimi hamda ko‘chalarni yoritish tizimlari bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish xarajatlari uchun 1 004,5 mln. (bir milliard to‘rt million besh yuz ming) so‘m mablag‘ ajratilsin.

Bunda:

viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasiga 663,0 mln (olti yuz oltmish uch million) so‘m;

“Qaynarsoy issiqlik manbai” davlat muassasasiga 301,5 mln (uch yuz bir million besh yuz ming) so‘m;

“Qaynarsoy suvoqava” davlat muassasasiga 40,0 mln. (qirq million) so‘m mablag‘ yo‘naltirilsin.

2. Viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Sh.Xashimov) mablag‘ ajratish bo‘yicha “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi”da tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

3. Viloyat g‘aznachilik boshqarmasi (M.Zaripov) ajratilgan mablag‘ bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi (E.Abduvaliyev), “Qaynarsoy issiqlik manbai” hamda “Qaynarsoy suvoqava” davlat muassasasi: ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlasin.

5. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti viloyat boshqarmasi huzuridagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi (O.Odilov) ajratilgan mablag‘dan maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

6. Mazkur farmoyish ijrosini ta’minlash viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari O.Tursunov hamda viloyat hokimi o‘rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklatilsin.

**Toshkent viloyati
hokimi**



Z.Mirzayev